

3 - ilova

Tarif (QQS va Maxsus ustama haq bilan)

Suv 1 m³ 4420 so'm
Oqova 1 m³ so'm

65

-sonli shartnoma

«Iste'molchi» larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

«05» 01

2022

Ushbu shartnoma "Buxoro Suv Ta'minoti" MChJ Buxoro tuman filiali, keyingi o'rinnlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi

monsor

H. Coguprob

(F.I.Sh.)

shaxsida, bir tomonidan va keyingi o'rinnlarda «Iste'molchi» deb yuritiluvchi V.O. Muyasib (F.I.Sh.) asosida ish olib boruvchi direktor

ikkinci tomonidan, quyidagilar haqida tuzildi:

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matinda III guruh «Iste'molchi» lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish 4420 narx bo'yicha m³ni:

1m³ ichimlik suv uchun so'm (+QQS 15%), + so'm (maxsus ustama xaq)ni;

1 m³ oqova suv uchun so'm (+QQS 15%), + so'm (maxsus ustama xaq)ni tashkil qilmoqda.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni amaldaqi tasdiqlangan standartlarga javob beradigan sifatlari ichimlik suv bilan ta'mintash va «Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni belgilangan muddatlarda 100 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldaggi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari"ga (keyinchalik matnda - Qoidalalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1m³ ichimlik suv uchun so'm, 1m³ oqova suv xizmati uchun so'm bilan birga «Ta'minotchi» tomonidan taqdim qilingan kommunal suv yetkazib berish va oqova suv chiqarish tizimiga ularish uchun ruxsat etuvchi hujjalarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» «Ta'minotchi» tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda o'stasarrufidagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ularishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtaida to'lov masalalarida paydo bo'ladijan nizolar «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh iste'molchilariiga mansub bo'lsa, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish asbobini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, piyodalar yo'lakchalariga o'rnatilgan vaqtidan tashqari suv sepiish hamda ichimlik suvidan avtomashinalarni yuvish uchun foydalanish qat'ian man etiladi.

2.5. Suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suvi «Iste'molchi»larning xo'jalik-iste'mol va kommunal-maishiy ehtiyojlari, yong'iqlarni o'chirish, shuningdek, ichimlik suvi talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan.

2.6. Suvni hisobga olish asboblari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilgan va tamg'alangan bo'lishi va suv o'ichash tarmogi suv-kommunal xo'jaligi tashkiloti tomonidan tamg'alanishi lozim. Shuningdek ichimlik suvini xisobga olish uskunasini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 20.08.2019 yildagi №-698 sonli qaroriga muvofiq yuritiladi.

2.7. «Iste'molchi»ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'ichash qurilmasining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlaradi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va «Iste'molchi» bilan kelishiasi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'ichash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash qurilmalarini ishqga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashtirish, yangi sub «Iste'molchi» larining ularishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Ta'minotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchi» ning so'rovnomasida, barcha tasdiqlovchi hujjalarni ilova qilgan holda beriladi. «Ta'minotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldaqi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjalarni asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ularish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulararning ishga tushirilishi «Ta'minotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgarganda, sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart

2.11. Limitdan ortiqcha suv iste'mol qilingan holatlarda, «Ta'minotchi» tomonidan belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koefitsientni qo'llash yo'li bilan haq undiriladi

2.12. Quyidagilar «Ta'minotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlar o'rtaadi. Kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalar)ga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatlari saqlash va foydalishni yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) suv iste'moli uchun — kommunal tarmoqqi ularishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ularish, «Iste'molchi» ning ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) kanalizatsiya uchun — «Iste'molchi» kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'iga ularish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug'i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq «Ta'minotchi» tashkiloti kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblananib, unga tutashtiruvchi foydalish chizig'i esa «Iste'molchi» ning mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlar

3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

3.1.1. «Ta'minotchi» tashkilotidan, uning bilan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzuksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iqa, mulkiga xavi tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

3.1.2. «Ta'minotchi» tashkilotidan suvni hisobga olish va boblarini o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

3.1.3. Tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «Ta'minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

3.1.4. «Ta'minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushu muddatta suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlarga bekor qilish;

3.1.5. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.6. «Ta'minotchi» tashkilotidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajimi va sifati, ularni amalga oshirish shartlar, to'lovlari tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.7. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 saat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

3.1.8. «Davsanepidnazorat» organlari tomonidan tasdiqlangan amaidagi standartlarga javob beradigan sifatlari ichimlik suv bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mayjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelgingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlar:

3.2.1. Kanalizatsiya tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarni suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning butligi, saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatlaligi uchun;

3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, kanalizatsiya tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tamberaning yo'qligi, reviziyalarning zinch yopilmasligi, nosoz texnik holati tusayli iste'molchining kanalizatsiya tarmoqlarida yoki «Ta'minotchi» tashkilotida, ichimlik suv va kanalizatsiyining tashqi tarmoqlarida avariya (tijilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarni suv bosishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun;

3.2.3. «Ta'minotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalanimadigan suvni hisobga olish asbobi, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfinlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlanishi uchun;

3.2.4. «Ta'minotchi» tashkilotiga ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tusayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda.

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanan to'xtatilganda «Iste'molchi» 24 saat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfinlarni plombalash uchun «Ta'minotchi» tashkiloti vakilini chaqirishi shart.

3.3. »Ta'minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. «Ta'minotchi» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a) «Iste'molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqarsiz bo'lganda va «Ta'minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Ta'minotchi» tashkiloti talablarini iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta'minotchi» tashkiloti mansabdar shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzebi, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan fimidan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvoqilaqtirish va «Ta'minotchi» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asosiz ravishda kiritilmaganda;

v) «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya farmoqlari va qurilmalarida rejali ogohlantirish uchida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlarni o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ulash ishlarni amalga oshirilganda;

g) «Iste'molchi» tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulanganani aniqlanganda;

d) «Iste'molchi» tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

ye) «Iste'molchi»ning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga «Ta'minotchi» tashkilotidan ularish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomaga olgan subabonentlarning tegishli tartibda ularishi rad etilganda;

yo) «Iste'molchi» tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga roya qilmaganda.

3.3.9. «Ta'minotchi» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqil;

a) «Ta'minotchi» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b) Tabiiy ofatlar ro'y berganda;

v) Avariya holatlarda;

g) Yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. «Ta'minotchi»ning majburiyatlar:

3.4.1. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Suv ta'minoti uzuksizligini ta'minlash;

3.4.4. Tarmoqdagisi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

3.4.5. Iste'molchilarining kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlariga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanimishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalishni tashkillashtirishda iste'molchilarga amaliy yordam ko'rsatish;

3.4.6. Iste'molchilardagi suvning behuda oqib ketishi va oqilona foydalanimayotganlik holatlarini aniqlash, suv berish va undan foydalishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, sanoat korxonalarini va ularga tenglashtirilgan korxonalarda suv berish bo'yicha belgilangan limitlarga roya qilmayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;

3.4.7. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Ta'minotchi» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi koefitsientni qo'flash;

3.4.8. Kommunal oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta'minlash;

3.4.9. Shartnoma shartlariga muvoqiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste'molchiga penya to'lash;

3.4.10. Iste'molchilarining shartnoma shartlariga ro'y berish maganasi masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

3.4.11. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga bepul taqdim etish;

3.4.12. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari tariflari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga bepul taqdim etish;

3.4.13. Ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida iste'molchilar uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish;

IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. «Ta'minotchi» ushu shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zarami, «Iste'molchi» esa yetkazilgan haqiqiy zaraming o'rnini qoplashi shart.

4.2. «Iste'molchi» quyidagilar uchun javobgardir:

a) Suv hisoblash qurilmasidagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan tamg' alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;

b) Suv tarmoqlariga o'z boshimcha ularib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash qurilmalaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlari uchun;

v) Qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda;

g) O'zboshimchalik bilan qurilgan inshoatlar sababidan, tarmoqlardagi avariyalar bo'lgan xolatlarda;

d) Kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lsa «Iste'molchi» hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «Ta'minotchi» o'rnatilgan tartibda dalolatnomasi tuzadi va ushu dalolatnomasi «Iste'molchi»ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4.3. «Ta'minotchi» quyidagi hollarda javobgardir:

a) Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjalarning talablariga muvofiq, uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda va shartnomasi shartlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda;

b) «Iste'molchi» larga suv ta'minotiga ularish va suv chiqarish xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdirmi qilinishi uchun;

v) «Iste'molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;

g) Shartnomasi shartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarmaslik;

d) Qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarining tartibi

5.1. Kommunal suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash qurilmasi mavjud bo'lganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tariflar bo'yicha QQSNi hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. «Iste'molchi» ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo'lganda oxirgi uch oyning o'rtacha sarfi bo'yicha hamda hisobga olish priborlari mavjud bo'lmaganda oylik iste'mol normasi bo'yicha keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3. To'lovning shartnomada belgilanganidan kechiktirilgan har bir kuni uchun iste'molchi 0,4 foiz penya to'laydi. Amino bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4. «Iste'molchi» keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarini amalga oshirmsalar, iste'molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'tgandan keyin qarzlarни qonun hujjalarda belgilangan tartibda iste'molchilarni ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq «Iste'molchi» zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgari uzbek qo'yilgan hollarda qayta ulashda III-guruh «Iste'molchi» lardan eng kam oylik ish haqining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvning miqdori, suv tarmog'idan yetkazib beriladigan suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi sovuq suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2.0 koefitsienti ko'llaniladi. «Iste'molchi»ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, oqova suvlarining miqdori ushu suv qurilmalarining mahsuldarligiga (yoki o'rnatilgan va ro'yxatga olinigan hisoblash qurilmalarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «Iste'molchi»ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'imasligi lozim.

5.6. Ob'ekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy communal oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomasi tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususi avtonom manbai (arteziyan skvajinasi, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda communal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish uchun to'lovlar, o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichiari asosida amalga oshiriladi. «Iste'molchi» ga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

VI. Aloxida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda, «Iste'molchi» chiqib ketishidan 7 kun avval debitorlik qarzlarini uzib, bu haqda «Ta'minotchi» bilan dalolatnomasi inzolashi shart. «Iste'molchi» chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi va plombalarning butligi uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. «Iste'molchi»ning suv uzatish-oqova xo'jaligidagi barcha o'zgarishlar «Ta'minotchi» tomonidan «Iste'molchi»ning xati kelib tushgan kundan boshlab hisobga olinadi.

6.3. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi qurvuring o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times t$$

bunda: M – 0.60ga teng bo'lgan zulfin orgali suv sarfi koefitsienti;

F – suyuqlik oqib o'tadigan quruv yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha)m²;

g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;

N – suvning metrlardagi bosimi;

t – vaqt- 24 soat, sekundlarda;

Quyidagi holatlarda:

6.3.1. «Iste'molchi»da suv o'lchash asbob va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.3.2. Suv o'lchash asbobi yoki moslamasi «Ta'minotchi»da ro'yhatdan o'tmagan taqdirda;

6.3.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalanan, suv sepiulganda, avtomashinalar yuvilganda;

6.3.4. Suv o'lchash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi ushu shartnomasi 6 qismining;

6.3. bandida ko'rsatilganiga muvofiq, eng so'nggi tuzilgan dalolatnomasi muddatidan yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.3.5. «Iste'molchi»ning ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimi kommunikatsiyalaridan suv isrof bo'lishi (utechka) holatlari aniqlangan holatlarda;

6.3.6. «Ta'minotchi»ning suv o'lchash bo'g'inini diametiri kichikroq bo'lgan moslamaga alishtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan, bajarilmagan holatlarda;

6.3.7. Suv o'lchash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (tamg'aga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sof sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.4. Ichimlik suvi va oqova suv communal tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrantlari va xonodon quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ularib olingen va foydalangan holatlari aniqlanganda, «Ta'minotchi» tomonidan dalolatnomasi tuziladi va shu tuzilgan dalolatnomasi o'zboshimchalik bilan ularib olgan shaxsnинг javobgarligi darajasini aniqlash va «Ta'minotchi»ga yetkazilgan zarami hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

- to'lov muddati eng so'nggi tuzilgan dalolatnomalaridan o'zboshimchilik bilan ulanib olingen kun sanasigacha yoki yangisuv o'lhash asbob o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha, yoki o'zboshimchilik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

- o'zboshimchilik bilan ulanib oliga sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar «Ta'minotchi» balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchilik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lnasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi;

6.5. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyxalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, «Ta'minotchi» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ldi.

6.6. «Iste'molchi» kommunal suv ta'minoti va oqova suvn'i chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda ««Ta'minotchi»» tomonidan, xokim qarori va kadastro hujjatlari va shu kabilalar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.7. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlari, «Ta'minotchi» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlari «Iste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichiqda akseptsz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, «Ta'minotchi» kechiktirilgan to'loving har bir kuni uchun 0.4 % penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'loving 50%dan oshmasligi lozim.

6.8. «Iste'molchi» hisob raqami bo'lmagan taqdirda, to'lovlari bank bo'limlarining kirim kassasi orqali, hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.

6.9. Kanalizatsiya tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlari «Iste'molchi» lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlari qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aboli punktlarining communal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "«Iste'molchi»" larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar orttiriluvchi koefitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.10. Oqova suvn'i chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bitan belgilangan OYQChM (oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori) dan ortiqcha oqova suvlari va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.

6.11. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizilganlik uchun kompensatsiya to'lovlari hisoblab yozish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktyabrdagi "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sun qaroriga muvofiq analoga oshiriladi.

6.12. Ishlab chiqarish oqova suvlari qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholl punktlarining communal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlari hisoblash tartibi (tugallanmagan) ???

6.13. Xisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlari) to'g'risida «Iste'molchi» yoziladigan e'tiroznomalar to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Ta'minotchi»ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznomalar «Iste'molchi» ni to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

VII. Nizolarни hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida shartnomalar yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan haf qilinadi.

Agarda ikki tomonlarga kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik «Iste'molchi» davlat ro'yxatidan o'tgan iqtisodiy sudlarda ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlardan yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnomalar bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisaulari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari muzkur shartnomanining bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlardan yuzaga keltingan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mayjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnomalarini bajarishga 3 oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomanining amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnomalar ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2. Shartnomalar imzolangan kundan 5 yil muddat davomida heqiqiy hisoblanadi. Zarur holatlarda shartnomalar uzaytirilishi ham mumkin, bunda tomonlardan biri shartnomanining amal qilish muddatini vaqtidan avval to'xtatmagan, ««Iste'molchi»» shartnomalar muddati tugashidan 15 kun avval ««Ta'minotchi»» ni ogohlantirgan va shu vaqtgacha ichimlik suvini yetkazib berish va kanalizatsiya xizmatlari haqini to'liq to'lab qo'ygan bo'lishi lozim.

X. Taraflarning yuridik manzili:

««TA'MINOTCHI»»

««ISTE'MOLCHI»»

Manzil: Gala Osiyo shaxar, F.Xujaev kuchasi 1

OKED (OKONX) 36000 (90213)

INN 201513859

Bank MFO 00088

Hisob raqam 22638000600309412322

Manzil:
Telefon: AKSIYADORLIK FUQARAT BANKI
g'az/h-r: "Qishloq qurilish bank"
Bank: GALA OSIYO FILIALI
Bank kodи: 87112
XHUTUT: № 1950700080000975001
Shaxsiy: 200512034 XXTUT 96120 MFO 00975
Shaxsiy h-r: Buxoro tumani, Gala Osiyo shahar,
Bank: BUXOLOV
Bank kodи: 87112
(e'zazchi bilan uchun)
Rahbar: H. Cogirbek
M.O.: 202 y.

Rahbar: T. Muyasob
M.O.: 202 y.
(F.I.Sh. imzo)
BUXOLOV
qurilish
bank
AKS
202 y.

Yuridik xulosasi:

Ushbu shartnomalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarorlik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomalarini haqiqiy asosi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan

Haqueqshunos:

202 y.